HIKOYA JANRIDA AYOL PSIXOLOGIZMI MUAMMOSI

Ismoilova Dilfuza Aminboy qizi
Toshkent tibbiyot akademiyasi, o'zbek tili o'qituvchisi
E-pochta: dilfuzaismoilova75@gmail.com

Qabul qilindi: 27.10.2025
Ko'rib chiqildi: 28.10.2025
Tasdiqlandi: 29.10.2025

Kalit so'zlar:
psixologizm, hikoya janri, psixologik tasvir, monolog, dialog, realizm, modernizm.

Annotatsiya. Ushbu maqolada hikoya janrining psixologik tasvir uchun qanchalik mosligi hamda ayol psixologizmini ifodalashda hikoya janrining ahamiyati haqida so'z boradi va bir qancha misollar bilan tushuntiriladi.

Kirish. Adabiyot inson ruhiyatining aksidir. Insoniyat o'zining ichki kechinmalarini qadim zamonlardan buyon turli shakllarda ifoda etib kelgan: og'zaki ijodda dostonlar orqali, yozma adabiyotda esa nasr va she'riyat vositasida. Shu shakllardan biri, albatta, hikoya janri bo'lib, bugungi zamon adabiyotida inson ruhiyatini chuqurroq tahlil qilishda muhim vositaga aylangan. Ayniqsa, hikoya janrining ixchamligi va sodda syujet tuzilmasi, uning ichki dinamika va ruhiyatga oid jihatlarni kengaytirishda alohida rol o'ynaydi. Bu janrda ko'pincha insonning ichki dunyosini, kechinmalarini va ruhiy holatini tasvirlashga katta e'tibor qaratiladi, shuning uchun uning psixologik tahlil imkoniyatlari juda boy.

Adabiyot va psixologiya o'rtasidagi tarixiy aloqaning rivojlanishi insonning ichki olami va tashqi dunyo bilan o'zaro aloqasini tahlil qilish zaruriyatidan kelib chiqqan. Har ikki soha adabiyot va psixologiya inson ruhiyatining chuqur qatlamlariga, uning kechinmalari va hissiyotlariga bo'lgan qiziqishni aks ettiradi. Bu bog'liqlik ayniqsa XX asrda kuchaygan, chunki psixologizm tushunchasi adabiyotda keng tarqalib, zamonaviy yozuvchilarga inson ruhiyatining eng nozik va murakkab qatlamlarini ochish imkoniyatini yaratgan.

Adabiyot tarixida insonning ichki dunyosini aks ettirish doimo mavjud bo'lgan. Dostonlar va afsonalarda, ya'ni og'zaki adabiyotning dastlabki shakllarida insonning ruhiy kechinmalari, maqsadlari va orzulari tasvirlangan. Yozma adabiyot rivojlanishi bilan, bu tasvirlar yanada mukammallashdi. Romantizm va realizm davrida adabiyotda obrazlarning ruhiyatini ochish, ularning ichki dunyosiga chuqur kirib borish asosiy vazifaga aylandi. XIX asrda realizm davrida yozuvchilar insonning ichki olamiga, uning qarama-qarshiliklariga, his-tuyg'ulariga katta ahamiyat bera boshladilar. Bu davrda, Freydning psixoanaliz nazariyasining rivojlanishi adabiyotda psixologik tahlilning yangi imkoniyatlarini ochdi. Freydning ongsiz jarayonlarni

tushuntirish va insonning ichki qarama-qarshiliklarini tasvirlashga bo‘lgan qiziqishi, yozuvchilarga o‘z asarlarida inson ruhiyatining murakkabligini ochishga yordam berdi. XX asrda psixologiyaning adabiyotga ta’siri yanada kuchayib, adabiyotning psixologik tahlil uslublarini shakllantirishda katta rol o‘ynadi. Bunda, Freyd, Yung va Adler kabi psixologlarning ilmiy qarashlari adabiy tahlil usullariga asos bo‘lib xizmat qildi. Psixologizm, ayniqsa, realizm va modernizmda insonning ichki kechinmalarini, xususan, ongsiz hissiyotlar va istaklarini ochish vositasi sifatida keng qo‘llanila boshlandi.

Psixologizm tushunchasi XIX asrning oxirlarida, ayniqsa, realizm davrida shakllanib, XX asrning boshlari bilan o‘zining butunlay yangi adabiy yo‘nalishi sifatida yuzaga keldi. Bu davrda psixologizm nafaqat realizmda, balki modernizm va postmodernizmda ham o‘z aksini topdi. Aslida, psixologizm o‘zida adabiy uslubni emas, balki adabiy asarlarni yozishning yangi metodini, yani, qahramonning ichki dunyosini ochishni ko‘zda tutadi. Boshqacha aytganda, psixologizm bu nafaqat tashqi harakatlar va syujetning rivojlanishi, balki qahramonlarning ruhiy holatlari, ularning ichki qarama-qarshiliklari va ongsiz kechinmalarini ifodalash san’ati sifatida qaraladi. Adabiy asarning badiiy yuksaklikka erishuvida psixologik tasvir, ya’ni psixologizm alohida o‘rin tutadi. Badiiy matnning estetik va semantik qatlamlarini chuqurlashtiruvchi bu hodisa ijodkorning obraz yaratish mahoratini, ichki nutq va hissiy holatlarni yetkazish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu jihatdan badiiy psixologizm, avvalo, inson qalbini o‘rganish va uni badiiy shaklda ifodalash vositasi sifatida qaraladi. Adabiyotshunos olim H. Umurovning fikricha, “…psixologizmning dastlabki ko‘rinishlari nemis sentimentalizmi adabiyotida paydo bo‘lgan”[1]. Darhaqiqat, bu adabiy oqimning falsafiy asoslari inson hissiyotlari va tuyg‘ularini yoritishga yo‘naltirilgani, shuningdek, unda his-tuyg‘ularga boy, ta’sirchan inson obrazining ideallashtirilgani psixologizm unsurlarining mavjudligidan dalolat beradi. Taniqli rus adabiyotshunosi A.B.Yesin psixologizmga quyidagicha ta’rif beradi: “Psixologizm aniq san’at shaklidir, uning orqasida badiiy ma’no, g‘oyaviy va hissiy mazmun turadi va ifodalanadi”[2]. Bu ta’rif psixologizmni oddiy ruhiy holatlarning aks ettirilishi emas, balki ularga estetik va badiiy yuklama berilgan shakl sifatida baholashga undaydi.

O‘zbek adabiyotshunosligida esa Dilmurod Quronov psixologik tasvirga obraz yaratishning markaziy vositasi sifatida yondashadi. U shunday deydi: “Badiiy psixologizm badiiy asarda to‘laqonli inson obrazini yaratishning muhim vositalaridan biri; personaj ruhiyatining ochib berilishi, xatti-harakatlari va gap-so‘zlarining psixologik jihatdan asoslanishi, shu maqsadlarga xizmat qiluvchi usul va vositalarning jami. Yozuvchi personaj ruhiyatini bevosita yoki bilvosita

[1] Умуров Ҳ. Бадиий психологизм ваҳозирги ўзбек романчилиги. –Т.: Фан, 1983. –Б.11-12.
[2] Yesin.A.B. Adabiy asarni tahlil qilish tamoyillariva usullari.- 4-nashr.-M.,2002 . – B. 54

tasvirlab berishi mumkin"[3]. Psixologizm she'riyat, nasr va dramaturgiyada baravar ahamiyat kasb etadi. Uning mavjudligi asarning hissiy ta'sirchanligini oshiradi, mohiyatini chuqurlashtiradi. Shu bois psixologik tasvirsiz yozilgan har qanday matn badiiy mukammallikka da'vo qila olmaydi. Bevosita yoki ochiq psixologizm yozuvchining qahramon nutqi (dialog, monolog), xatlar, kundaliklar, orzular va tushlar yordamida yani "ichkaridan turib" personajning oziga xos xususiyatlarini, ruhiy kechinmalarini tasvirlashi demakdir.

Adabiyotshunoslik tarixida psixologik tahlilga birinchi bo'lib chuqur e'tibor bergan olimlardan biri N.G.Cherneshevskiy hisoblanadi. U psixologik tasvirning shakllanishi, mazmuni va uslublari borasida bir necha yondashuvlarni ilgari suradi. Cherneshevskiyga ko'ra, ba'zi yozuvchilar obraz harakati orqali ichki holatni ifodalashga harakat qilsa, boshqalar ijtimoiy muhit va jamiyat ta'sirini ilgari suradi; yana bir guruh esa ehtiroslar va hissiyotlarni chuqur tahlil etishga intiladi. Shu nuqtai nazardan olganda, psixologik tasvir nafaqat obrazlar ichki dunyosini ochadi, balki muallifning estetik qarashlari, davr va jamiyatga munosabatini ham yoritadi. Badiiy asar insoniyat qalbini tarbiyalash, uni yaxshilik, bag'rikenglik, kechirimlilik sari yo'naltirishda qudratli vosita hisoblanadi. Psixologizm esa bu jarayonning eng muhim bo'g'inlaridan biridir.

O'zbek adabiyotida badiiy psixologizmning yuksak namunalarini Abdulla Qahhor ijodida ko'rish mumkin. Adibning fikricha, psixologizm "…yozuvchi mahoratining muhim jihatidir". Bu — obrazlar qalbini chuqur tahlil qilish, ularning ruhiy dunyosini o'ziga xos uslubda ochish san'atidir.

Ijodkorlar personaj ruhiyatini ochishda ichki monolog, psixologik portret, tushlar, gallyutsinatsiyalar, nutqiy tavsif kabi vositalardan keng foydalanadilar. Bularning barchasi badiiy psixologizm qonuniyatlarini mukammal bilish va uni san'at darajasida ifodalashni talab qiladi. Psixologizmning uch asosiy tamoyili ajratiladi: dinamik, tipologik va analitik. Dinamik psixologizmda obraz ruhiyati harakatlar, mimikalar, so'zlar orqali ochiladi va u, asosan, dramatik asarlar uchun xosdir. Tipologik tamoyil esa obrazni uni qurshab turgan muhit, tarixiy davr va ijtimoiy omillar bilan bog'liq holda tasvirlaydi.

Psixologizmning paydo bo'lishi, ayniqsa, Lev Tolstoy, Fyodor Dostoyevskiy kabi yozuvchilarning asarlarini tahlil qilishda aniq ko'rinadi. Dostoyevskiy o'zining psixologik romanlari orqali qahramonlarning ichki qarama-qarshiliklarini, ong va ongsizlikni ifodalashga katta e'tibor qaratdi. Bu, o'z navbatida, psixologizmni adabiyotda mustahkamladi va uni o'zining asosiy tahlil vositalaridan biriga aylantirdi. Psixologizmda, ayniqsa, qahramonlarning ichki monologlari, ong oqimi, psixologik portretlar va xotira tasvirlari ko'p ishlatilgan. Bunday yondashuvlar adabiy personajlarning ruhiyatini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

[3] Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. 2004. – B. 54

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab psixologizm nafaqat realizmda, balki modernizm va postmodernizmda ham o‘z aksini topdi. Modernizmda psixologizm yangi shaklga kirdi. Ayniqsa, ong oqimi usuli yordamida yozuvchilar qahramonlarning ichki holatini, ularning xotiralarini, orzularini va ongsiz kechinmalarini tasvirlashga kirishdilar. Jeyms Joys va Virjiniya Vulf kabi yozuvchilar o‘z asarlarida ong oqimi texnikasini ishlatib, o‘quvchiga personajlarning ruhiy holatini bevosita tushunish imkoniyatini berdilar. Joys “Uliss” asarida qahramonlarning ichki monologlarini va tasavvurlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks ettirib, o‘quvchining o‘zgaruvchan va murakkab psixologik jarayonlarni anglashiga yordam berdi.

Adabiy asarda obrazning ruhiy holatini ifodalash faqat uning tashqi harakatlari yoki hayotidagi o‘zgarishlarni ko‘rsatish emas, balki uning ichki dunyosini, ya’ni nima his qilayotganini ochib berishdir. Ayniqsa, ayol obrazining psixologik talqini hikoya janrida juda muhim ahamiyatga ega. Hikoyaning qisqa va to‘yingan tuzilmasi ayolning ichki holatini samarali va ta’sirchan tarzda ifodalashni talab qiladi. Shuning uchun, psixologizm hikoya janrida ayolning ruhiy olamini ko‘rsatishda asosiy vosita sifatida ajralib turadi. Yozuvchilar ayol kechinmalarini tasvirlayotganda ko‘pincha ichki monologlar, psixologik portretlar, xotiralar, tushlar va sezgilar orqali fikrlarini ifodalaydilar. Shu yo‘l bilan ayol obrazining ruhiy inqirozi, iztiroblari, orzu va intilishlari aniq va hayotiy tarzda aks etadi. Psixologizm, o‘z navbatida, ayolni faqat bir “qahramon” sifatida emas, balki to‘liq, hissiyotlari va xususiyatlari bilan real “inson” sifatida ko‘rsatadi. XX asrning ikkinchi yarmida adabiyotda inson psixologiyasining ifodalanishi, ayniqsa, psixologizm atamasi alohida muhokama qilina boshladi. Dastlab, bu tushuncha adabiy tanqidda uslubiy hodisa sifatida ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, keyinchalik psixologizm butun bir adabiy maktab va yo‘nalishlarning asosiy belgisiga aylandi. Ayol obrazlari bilan bog‘liq psixologizm esa, faqat harakatdan emas, balki kechinmalardan tayanadigan metod sifatida shakllandi. Ayol qahramonlarning ruhiy holatini tasvirlashda psixologizm o‘zining eng yuqori nuqtasiga chiqdi. Zulfiya Qurolboy qizi va Stefan Sveyg kabi yozuvchilarning asarlari bu jarayonda o‘rganishga arziydi. Ularning hikoyalarida ayol qahramonlar ko‘pincha voqealar markazida emas, balki ularning ichki olamidagi kechinmalar va hissiyotlar asosida tasvirlanadi. Ushbu dissertatsiyaning asosiy maqsadi ham aynan shundadir: hikoya janrida ayol psixologiyasining qanday ifodalanganini tahlil qilish, psixologik tahlil uslublarining qanday qo‘llanilganini o‘rganish. Psixologizmning adabiyotdagi o‘rni, rivojlanish bosqichlari va uning asosiy xususiyatlari haqida gapirganda, bu tushuncha butun adabiyotshunoslik tarixida o‘ziga xos o‘rin tutganini ko‘rishimiz mumkin. Bu tushuncha inson ruhiyatini, uning ichki kechinmalarini va tafakkur jarayonlarini san’at orqali tasvirlashni anglatadi. Psixologizmning asosiy maqsadi nafaqat tashqi harakatlar orqali, balki obrazning ichki holati, his-tuyg‘ulari, fikrlari va ong jarayonlari orqali uning psixologik portretini

yaratishdir. Bu jarayon esa, adabiyotda nafaqat yoritilgan obrazning, balki uning ichki dunyosining ham ko‘rinishini beradi. Bunday psixologik tahlil uslublari, xususan, romanchilar tomonidan birinchi marta romantizm davrida keng qo‘llanilgan bo‘lsa, keyinchalik realizm va modernizmda yanada mukammallashdi.

Hikoya hajman kichik bo‘lganligi sababli yozuvchi har bir detalni puxta o‘ylab, har bir sahnani ortiqcha tafsilotsiz, ammo chuqur mazmun bilan boyitishga harakat qiladi. Bu esa o‘z navbatida qahramonning ichki dunyosini faqat harakat yoki dialoglar orqali emas, balki mayda imo-ishoralar, ichki monologlar, sukunatlar va hatto jimliklar orqali ochishni talab qiladi. Shuning uchun ham hikoya janri psixologik chuqurlikka erishishda nozik va sinchkov yondashuvni taqozo etadi. Hikoya o‘z mohiyatiga ko‘ra konkret voqeani tasvirlaydi, biroq aksariyat hollarda bu voqea sirtdagi sabab bo‘lib xizmat qiladi. Asl dramatizm va konflikt qahramonning ichki holatida kechadi. Shu bois hikoya bu “tashqi voqea ortidagi ichki portlash” san’atidir. O‘zbek adabiyotida Zulfiya Qurolboy qizining hikoyalari ana shunday psixologik kechinmalarni ifodalashga qaratilgan. “Kelin”, “Iztirob”, “Ayol” kabi hikoyalarda ayol obrazlarining tashqi hayotida jiddiy voqealar bo‘lmasligi mumkin, ammo ularning ichki iztiroblari, ijtimoiy bosim, o‘zlikni anglash istagi markazga olinadi. Masalan, “Ayol” hikoyasida ayol obrazining jimligi, sukunati va shunchaki ko‘z yoshlari orqali muallif ichki qayg‘uni, yolg‘izlikni va ijtimoiy cheklovlar og‘irligini tasvirlaydi. Bu yerda voqea fon bo‘lib xizmat qiladi, ruhiy holat esa asarning mohiyatiga aylanadi. Tadqiqotchi N.Qobilova shunday yozadi: “Hikoya hayotning kichik bir parchasini aks ettiradi, unda bir yoki bir necha hayotiy voqea qalamga olinadi. Bu janrda qahramon ruhiy dunyosi izchil ravishda batafsil yoritish, “qalb dialektikasi”ni bosqichma-bosqich berish imkoni biroz cheklangan. Hikoyaga xarakterlar tayyor holda kirib keladi, shu sababli hikoya janrida psixologik tahlil ko‘proq situativ xarakterga ega bo‘ladi. Hikoyada tush, gallyutsinatsiya, maktub singari shakllarni qo‘llash ham ko‘p uchramaydi. Bu janrda psixologik detal, psixologik tafsilotdan foydalanish imkoniyati ko‘proq; portret esa, asosan, shtrixlar tarzida ko‘rinadi”[4].

O‘zbek hikoyachiligida ijtimoiy jihatdan faol ayollar obrazi asosan Abdulla Qahhorning ayrim hikoyalarida yaqqol ko‘zga tashlansa, XX asr boshlarida yaratilgan Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” tarixiy romanida bu masala yanada chuqurroq yondashuv bilan ochib berilgan. Asarda Kumush obrazi orqali o‘zbek ayollarining nafosati va go‘zalligi betakror tasvirlanib, ularning tabiiy husni va yuzidagi pardoz iffat hamda hayo bilan uyg‘unligi ta’kidlangan. O‘zbek adabiyotida ayollar obrazining turli talqinlari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib, bu tadqiqotlar ayol xarakterini, uning jamiyatdagi o‘rni va

[4] Қобилова Н. Жек Лондон ва Абдулла Қаҳҳор ижодида бадиий психологизм. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD)дисс. –Бухоро, 2020. –Б.18

shaxsiy kechinmalarini turli aspektlarda o‘rganishga xizmat qilgan. Xotin-qizlarning jamiyatdagi tengligi va ozodligi, ularning erlari bilan yonma-yon mehnat qilishi masalasi o‘zbek adabiyotida ham dolzarb mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Aynan shu masalani yorqin badiiy shaklda ochib bergan asarlardan biri – Abdulla Qahhorning “Mayiz yemagan xotin” hikoyasidir. Hikoyada bu g‘oyaga qarshi tish-tirnog‘i bilan kurashgan mulla Norqo‘zi paranjisini ochgan xotin-qizlar sha’niga kecha-yu kunduz bo‘hton to‘qib, ularning ozodlik sari tashlagan har bir qadami bilan murosasiz kurashgan obraz sifatida tasvirlanadi. “Sotiboldining xotini dorixonada ishlaydi, har kuni mingta odam bilan javob muomala qiladi: axir, bittasi bo‘lmasa bittasi ko‘z qisadi-da. Meliqo‘zining xotini avtobusda konduktor, ba’zan yarim kechada keladi, ishi erta tugagan kuni ham yarim kechgacha yursa, ayshini qilsa, eri bilib o‘tiribdimi? Abdulhakimning qiziga usta Mavlononing o‘g‘li bir hovuch mayiz berganini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Hayo bormi shularda ?”[5], degan fikrlari orqali uning jamiyatga aralashgan ayollarga bo‘lgan qarashlari ochib beriladi. Mulla Norqo‘zining xotini dastlab uyda o‘tiradigan, iboli va sodiq ayol go‘yo “farishtasifat” xotin sifatida tasvirlanadi. Biroq hikoya davomida bu tasavvur butkul o‘zgarib, uning asl mohiyati ochib beriladi. Aslida, u o‘taketgan buzuq ayol bo‘lib, turmush o‘rtog‘iga sodiq emasligi fosh bo‘ladi. Shu tariqa, Abdulla Qahhor nafaqat jamiyatdagi ikkiyuzlamachilikni, balki ayolga nisbatan faqat tashqi ko‘rinish va qoidalarga asoslangan munosabatning noto‘g‘ri ekanligini ham ko‘rsatadi. Undan tashqari A.Qahhor bu hikoyasi bilan jamiyatga aralashishni boshlayotgan ayollarni qoralashlariga qarshi chiqayotganday go‘yo.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Умуров Ҳ. Бадиий психологизм ваҳозирги ўзбек романчилиги. –Т.: Фан, 1983. –Б.11-12.
2. Yesin.A.B. Adabiy asarni tahlil qilish tamoyillariva usullari.- 4-nashr.- M.,2002 . – B. 54
3. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent. Abdulla Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti. 2004. – B. 54
4. Қобилова Н. Жек Лондон ва Абдулла Қаҳҳор ижодида бадиий психологизм. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD)дисс. – Бухоро, 2020. –Б.18
5. Abdulla Qahhor. “Yoshlar nashriyot uyi” T-2018. – B. 203

[5] Abdulla Qahhor. “Yoshlar nashriyot uyi” T-2018. – B. 203